# Mashq daftari

............ maktabning 2-“......” sinf o‘quvchisi

familiya

...........................................................................

ism

...........................................................................



Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi
Ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan

TASDIQLANGAN PLAGIATGA QARSHI TASDIQLANGAN

novda
edutainment

Toshkent – 2024

НЕ ДЛЯ ПЕЧАТИ

## Salom, aziz bolajonlar!

Qo‘lingizdagi ushbu daftar Informatika va axborot texnologiyalari darsligi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u sinfda olgan bilimlaringizni mustahkamlashga yordam beradi. U orqali mantiqiy fikrlashni, diqqat va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradigan vazifalarni bajarishni, shu bilan birga, inson o‘z atrofidagi olamni qanday tushunishini bilib olasiz, voqealar va obyektlar bir-biri bilan qanday bog‘langanligini o‘rganasiz.

Qiziquvchan va kuzatuvchan bo‘ling!

## Shartli belgilar



**Yozma bajaring**



**Bo‘yang**



**To‘g‘ri javobni tanlang**



**Mantiqiy topshiriq**



**Chiziqlar bilan tutashtiring**



**Dars yakuni**

## Refleksiya

Oson uddaladim



Biroz qiynaldim



Qiyin bo‘ldi



# Axborot

**1-topshiriq.** Harflarni shunday joylashtiringki, natijada bitta so‘z hosil bo‘lsin. Bu so‘zning ma’nosini yozing.

T O B

O X R A

..............................................................................................

..............................................................................................

**2-topshiriq.** Berilgan predmet haqida qaysi sezgi a’zosi orqali axborot olish mumkin? Har bir predmetni uni his qiladigan mos sezgi a’zosi bilan chiziqlar yordamida tutashtiring.



**3-topshiriq.** **Kerakli so'zlarni qo'yib, gaplarni to'ldiring.**

Biz tashqarida issiq ekanligi haqidagi axborotni ........................................................................................ orqali olamiz.

Biz bolalar ko'chada shovqin qilayotgani haqidagi axborotni ........................................................................ orqali olamiz.

Biz rezavor meva nordon ekanligi haqidagi axborotni ........................................................................................ orqali olamiz.

**4-topshiriq.** **O'qing. Xulosa chiqaring. Shart bo'yicha bo'yang.**



Sariq qalam yashil qalamdan uzunroq, lekin ko'k qalamdan qisqaroq.



Ko'k koptok eng kichik koptokning o'ng tomonida, qizil koptok esa yashil koptokning o'ng tomonida joylashgan.

**Ishingizni baholang.**



# Axborot turlari

1-topshiriq. Sezgi a'zolarini o'ziga tegishli axborot turlari bilan chiziqlar yordamida tutashtiring.



2-topshiriq. **To‘g‘ri javoblarni belgilang. To‘g‘ri javoblar bir nechta bo‘lishi mumkinligini yodda tuting.**

1. Odam ko‘rish axborotini ... qabul qiladi.

- [ ] musiqa tinglayotganda;
- [ ] surat tomosha qilayotganda;
- [ ] televizor ko‘rayotganda.

2. Odam ta’m bilish axborotini ... qabul qiladi.

- [ ] kitob o‘qiyotganda;
- [ ] muzqaymoq iste’mol qilayotganda;
- [ ] xat yozayotganda.



3. Odam hid bilish axborotini ... qabul qiladi.

- [ ] atir xarid qilayotganda;
- [ ] tort iste’mol qilayotganda;
- [ ] SMS jo‘natayotganda.

4. Odam tovushli axborotni ... qabul qiladi.

- [ ] kitob o‘qiyotganda;
- [ ] o‘rtog‘i bilan gaplashayotganda;
- [ ] musiqa ijro etayotganda.

**3-topshiriq.** Quyidagi alomatlarga tegishli ◯ larni mos axborot turlari rangiga bo'yang.

Ta'm bilish axboroti | Ko'rish axboroti | Tovushli axborot

Hid bilish axboroti | Ushlab his qilish axboroti

Nordon | Baland | Sovuq | Yashil | Katta

Xushbo'y | Mazali | Shirin | Muzdek | Tinch

Tikanli | Achchiq | Issiq | Sho'r

**4-topshiriq.** Xulosa chiqaring. Bu predmet to'g'ri to'rtburchak shaklida, rangi jigarrang. Undan kakao hidi keladi. U shirin ta'mga ega. Ushlab ko'rilsa, silliq, qo'lda eriydi. Bu nima?

..........................................................................................

Ishingizni baholang.



## Axborot manbalari

**1-topshiriq.** Atrofga diqqat bilan qarang. Nimalarni ko'ryapsiz? Qanday tovushlarni eshityapsiz? Qanday hidlarni sezyapsiz? Atrofingizdagi axborot manbalariga mos keluvchi predmetlarni yozing.

| | |
|---|---|
| Ushlab his qilish axborot manbayi | .......................................................<br>....................................................... |
| .......................................................<br>....................................................... | Ko'rish axborot manbayi |
| Ta'm bilish axborot manbayi | .......................................................<br>....................................................... |
| .......................................................<br>....................................................... | Eshitish axborot manbayi |
| Hid bilish axborot manbayi | .......................................................<br>....................................................... |

**2-topshiriq.** Rasmlarga qarang. Har bir rasmda nima axborot manbayi ekanligini yozing.







| | | |
|---|---|---|
| ........................ | ........................ | ........................ |

**3-topshiriq.** Orolda yolg‘onchilar va rostgo‘ylar yashaydi. Rostgo‘ylar har doim rost gapiradilar, yolg‘onchilar esa doim aldaydilar. O‘ylab ko‘ring, yolg‘onchi va rostgo‘y ushbu savollarga qanday javob bergan bo‘lar edi?

| Savollar | Rostgo‘y | Yolg‘onchi |
|---|---|---|
| *Siz rostgo‘ymisiz?* | ................................ | ................................ |
| *Siz rost gapiryapsizmi?* | ................................ | ................................ |
| *Siz yolg‘onchimisiz?* | ................................ | ................................ |

Ishingizni baholang.



## Axborot qabul qiluvchilar

**1-topshiriq.** Quyida berilganlardan qaysilari axborot qabul qiluvchi bo'lishi mumkinligini belgilang.

- [ ] Kitob
- [ ] Odam
- [ ] Soat
- [ ] Mushuk
- [ ] Sigir
- [ ] Televizor
- [ ] Kuchuk
- [ ] Telefon
- [ ] Kompyuter

**2-topshiriq.** Har bir rasm tagiga kim yoki nima axborot qabul qiluvchi, kim yoki nima axborot uzatish manbayi ekanini yozing.







**A**

Axborot manbayi: ..................................

Qabul qiluvchi: ..................................

**B**

Axborot manbayi: ..................................

Qabul qiluvchi: ..................................

**3-topshiriq.** Rasmga tayanib, axborot manbayi va axborot qabul qiluvchilarni yozing.



........................................

........................................

........................................

........................................

............................................................

**4-topshiriq.** Orolda yolg'onchi va rostgo'y odamlar qabilalari yashaydi. Rostgo'ylar har doim rost gapiradilar, yolg'onchilar esa doim aldaydilar. Agar sayyoh mahalliy aholining biridan "Siz kimsiz?" deb so'rasa, u qanday javob oladi?

- ☐ Har doim "Men rostgo'yman" degan javobni oladi.
- ☐ Har doim "Men yolg'onchiman" degan javobni oladi.
- ☐ Har ikki javob variantini olishi mumkin.

Ishingizni baholang.

